

**MA'RIFATPARVAR ADIB, ABDULLA AVLONIYNI XOTIRLAB**

Nizamova Malika Ravshan qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti

Logopediya yo'nalishi talabasi

**ANNOTATSIYA**

Maqola, Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari, o'zbek xalqining ruhiyati turmush tarzi, milliy qadryatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Avloniyning siymosi, faoliyati biz yoshlar uchun qadrlidir.

**Kalit so'zlar:** Gazeta, Jamiyati xayriya, adabiyot, hukumat.

**ANNOTATION**

The article is closely related to the views of Abdulla Avloni in the field of education, the mentality of the Uzbek people, the way of life, and national values. The work of Avloni's figure is valuable for us young people.

**Key words:** Gazette, Community charity, literature, government.

Bu vatan, shox-u gado, yaxshi yomon yaksonidur. Bu vatan, hajrinda har kun, necha jon qurbonidur. Bu vatan yo rohat yoxud alamning konidur, Bu vatan har bir vujudning mavlai pinhonidur.

Har bir davrning bir emas, bir necha o'n, yuz balki minglab qahramonlari bo'lgan. Ular o'zlarining ezgu fikrlari, qilgan ishlari, qalb tuyg'onlari hatto qurbonliklari bilan ham bir-birlariga yaqin bo'lishgan. Huddi shunday qahramonlarimizdan biri Abdulla Avloniy. Bugungi avlod "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari muallifi sifatida yaxshi biladi. Negaki, bu asardan namunalar maktab darsliklariga kiritilgan bo'lib, o'qish, adabiyot va ma'naviyat darsliklariga o'quvchilar Avloniy haqida ma'lumotga ega bo'lishmoqda. Biroq Avloniy jadidchilik harakatining faol vakili bo'lganini yurti millati ozodligi uchun o'z uslubida kurash olib, borganini bugun Prezidentimiz, hamda yurtimiz ziyolilari uni o'z davrining qahramoni sifatida, e'zozlab yodga olayotganini Adiblar xiyobonida nima uchun uning ham haykal o'rnatilganini aksariyat yoshlar ma'lumotga ega emas. Abdulla Avloniy o'zining "Tarjimai holi" (Avloniyning ushbu "Tarjimai holi" professor Begali Qosimov tomonidan nashrga tayyorlangan va ilk marotaba majmuasida chop etilgan. Matn so'nggida nashrga tayyorlovchi tomonidan izoh bitilgan: "Avloniyning uy-muzeyida uning turli davrda turli munosabatlar bilan yozilgan yetti nusxasi mavjud) qayd etilgan.

1878-yil milodiyda, 12-iyulda Toshkentning eski shahar Shayxantavur daha Mergancha mahallasida faqirhol bir oilada tug'ilganman. Otamning ismi Miravlon, onamning oti Fotimadir. Otamning tub kasbi to'quvchilik bo'lib zamonalarda chitb bilan savdo qilur edi. 1885-yilda boshlang'ich maktabda o'qidim. O'qchi mahallasida Akromxon domlada xat-savod chiqardim. 1890-yilda maktabni bitirib, mahalladagi madrasada dars o'qiy boshladim. Yoshim 13ga yetgach, yo'qsullik menga ta'sir qildi. Yoz kunlarida mardikorlik qilib, ota-onamga biroz yordam qilib, qish kunlarida o'qir edim. 1894-yildan boshlab she'r yozishga tutindim. Zamong'a moslab turli xildagi she'rlar yoza boshladim. 1900-yilda uylanib, oila boshlig'i bo'lib qoldim. 1904-yildan boshlab jadidlar to'dasida ishlay boshladim. 1906-

yilda "Taraqqiy", "Xurshid" gazetalari chiqib, eski hukumat tomonidan to'xtatilganidan so'ng 1907-yilda men o'z muharrirligim bilan hamda temir yo'l ishchilarining sotsial-demokratik firqasining aloqa va yordami bilan "Shuhrat" nomidagi gazetaga she'rlar chiqara boshladim. Temir yo'l ishchilarining komitetlari tomonidan "Rafiq Sobirov" ismli qozonli tatar orqadoshimiz mening gazeting'a kelib, yozuv jihatlaridan yordamlashur edi. Shul vaqtda O'runburg'da chiqadurgon, fofirusn ko'aziga bosiladurgon "Soldat" ismli ruscha maxfiy gazetani va mundane boshqa ruscha froqlamatsiyalarni "Rafiq Sobirov" bilan ikkimiz turli kishilarning vositasi bilan tarqatur edik. Bu ruscha froqlamatsiyalarg'a qanoat qilmay, musulmoncha tipog'af bilan maxfiy suratda froqlamatsiya bosub shahar va qishloqlarga ham tarqata boshladuk. Bu froqlamatsiyaning yozuvchisi- O'tab kotib, Eski shaharg'a tarqatuvchi- Eshonxo'ja, Yangi shaharg'a -men, qishloqlarg'a- Umarqul Anorqul o'g'li edi. Bizning harakatimizni eski hukumatning sezganlig'i bilindi. Mening uyimda yolg'on passport bilan turg'on "Sobirov"ni qochirdik. Ul O'runburg'a borib, qo'lga tushib qoldi. Sud o'limga hukm qilib, Toshkentdagi qo'mitani ochub bersang, o'lim jazosini o'zgartamiz, deb shart qo'ydilar. Ul o'limdan qo'rqib, tamom qilg'on ishlarin, "Shuhrat" gazetasin shul qo'mitaning yordami bilan chiqqanlig'in va inqilob qo'mita a'zolarin tutib berdi. Ko'b kishilarning olimiga, Sibir va turmaga yopuliviga sabab bo'ldi. 1908-yilda Mirobodda usuli jadid maktabini ochib, muallimlik qila boshladim. 1909-yilda bir necha o'rtoqlarim bilan qonun tuzib, "Jamiyati xayriya" ochdik. Olti oy rais bo'lib turdim. 1913-yildan boshlab xalqni ko'zin ochmoq, madaniyatig'a yaqinlashtirmoq uchun teatrg'a kirishib, teatr ishlarin yo'lg'a qo'yuvchilartning boshlug'l bo'lib, Turkistonning bir necha shaharlarig'a borib, o'zbeklar orasida teatrg'a yo'l ochdim. 10 ga yaqin ozarbayjon pyesalarini o'zbekchaga tarjima qilib, sahnaga qo'ydim. 3ta pyesa yozdim. 1915-yilda Toshkentda chiqg'on "Sadoi Turkiston" gazetasida yozuvchilik, muharrirlik qildim. 1917-yilda o'zgarish boshlanishi bilan "Turon" jamiyati tomonidan sovet bo'lib ishladim. 1918-yilda communist firqasiga kirdim. Eski shaharda qorovullar, ishlovchilarni tashkil qildim. 1919-yilda 15-iyulda Avg'onistonga ketdim. 1920-yilda "Qizil bayroq" gazetasida SK tomonidan redkollegiya a'zosi tayinlanib ishladik, 1921-yilda SK Turkbyurodan o'z ixtiyoriga olib, Eski shahar maorif sho'basiga muovin etib tayinlandim. 1922-yilda xotin-qizlar bilim yurtiga tayin qildilar. Mudir bo'lib olti oycha ishladim. 1923-yilda O'qituvchilar Soyuzining konfrensiyasida jamiyatga saylanib, Eski shahar maorif soyuziga rais bo'ldim. 1924-yil 15-yanvarda Turkfront tomonidan yuborilgan qog'ozga binoan Birinchi raykomga komandirovka qildim. 1925-yildan beri SAKU da ilmiy ham o'qituv ishlari bilan shug'ullandim. 1929-yilda O'zbekiston Markaziy Ijroqo'mitasiga a'zo bo'lib ishladim. 1929-1930-yillarda SAKU ning predmet komissiyasiga rais bo'lib ishladim. Abdulla Avloniy 1932-yil 26-noyabrda yozilgan ushbu Tarjima holidan XX asr boshlarida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirishning eng faol a'zosi Abdulla Avloniy ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bugun maktab va nashriyot ochish u darajada murakkab ish emasdir balki, ishtiyoq va boshlang'ich mablag'bo'lsa, qolganiga davlat qo'llab quvvatlab yuboradi. Ammo Avloniy yashagan davrida osonlik bilan amalga oshmagan. har kim bir ishni boshlashi uchun bilim, tafakkur va ulkan jasorat kerak bo'lgan. Avloniyning hayoti boshqa jadidlardan farqliroq kechgan. Masalan, Avloniy qatag'on qilinmagan, xalq dushmani sifatida qoralanmagan bo'lsada, ammo, 1966-yilgacha uning ijodi o'rganilmagan. Avloniyning o'limidan so'ng asarlari chop qilinmagan go'yo bevaqt o'limi bilan Avloniy o'z sha'ni oilasi tinchligini xavf hatardan himoya qilib kelgandey go'yo. O'z Vatani uchun qayg'urgan avlodlar tarbiyasini tug'ilgan kundan boshlash kerakligini uqtirgan ma'rifatparvar adib, jadidchilik harakatining faol a'zosi, pedagog, yangi darsliklar muallifi shoir, drammaturg, maktab nashriyot ma'suli, o'zbek teatri asoschilaridan biri "Turon" teatr truppasi tuzuvchisi, Turkistonning Avg'onistondagi birinchi muxtor elchisi Avloniy 1934-yil 25-avgustda vafot etadi. O'zbekiston

Respublikasining Prezidentin Shavkat Mirziyoyev "Vatanimiz ozodligi va xalqimizning baxt soadati yo'lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy ma'rifiy adabiy, badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatiga ega. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta jurnallar nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar. Vatanimiz istiqloli uchun xalqimizning ozodligi va erkinligi, obod va farovon hayotni ta'minlash yo'lida fidokorlik ko'rsatib, milliy ta'lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos xizmatini qo'shgan Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonovlar "Buyuk xizmatlari" uchun ordeni bilan taqdirlanganliklarini sizlarga ma'lum qilaman deya ta'kidlaganlar. Butun hayotini o'z xalqining mustaqilligi, yurtining ozodligi uchun kurashga bag'ishlagan Abdulla Avloniy haqiqiy jasorat timsoli va o'z davrining asl qahramoni hisoblanadi desam mutlaq adashmagan bo'laman.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B. Qosimov, O. Oltinbek "Jadid adabiyoti namoyondalari" Abdulla Avloniy Toshkent 2022
2. Farobiy "Pedagogika tarixi" asari